

TIL - MILLAT RUHI



Abstract:

Turli hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. 2005 yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6 912ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi (2 269tasi) Osiyo va 30,3 foizi (2 092tasi) Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.

Key words:

Til, millat, YUNESKO, qadriyat

Author of the article:

Bozorova Nargiza
Etolmasovna

Workspace (Education subject)

Qarshi tumani 25-maktabning
ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi

Til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining «so'nggi sohibi»dan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotgani esa dahshatli hodisa!

YUNESKOning 2017 yil 15 iyundagi xabariga ko'ra, o'lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15tasi Markaziy Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi. Jumladan, O'zbekistondagi Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro-Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo'lilari (paryo) tilini keltirish mumkin. Qolgan tillarning 2tasi Qozog'iston va Qirg'izistonda (dungan va oyrot tillari), bittasi Turkmanistonda (truxman tili), 9tasi Tojikistonda (voxon, ishkomish, sanglich, roshorv, shug'on, bartang, rushon, yazg'ulob, yag'nob tillari).

Tilga davlat tili maqomi berilishi uni yo'qolish muammosiga duch kelish xavfidan ma'lum darajadagina (!) xalos qiladi. Masalan, udmurt, chukot, chechen tillari ham, davlat tili bo'lsa-da, yo'qolish xavfiga yuz tutayotgani – fikrimizning dalili. Albatta, davlat tili maqomi til va uning sohiblari uchun juda ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga ega. U – milliy yaxlitlikni va bardavomlikni ta'minlovchi asosiy vosita. Biroq uning o'zingga tilning yashab qolishi uchun yetarli emas. — Tillar o'limi soni so'nggi o'n yillikda oxirgi yuz yillikdagidan ko'proq. Tillar o'limiga asosan nimalar sabab bo'ladi:

Odamlar tildan foydalanmay qo'yadi, keng qo'llanishdagi va «obro'li» tillarga ustunlik berilishi natijasida bu tilda ta'lim olinmaydi.

Tillar ham odamlarga o'xshaydi, yonma-yon yashashadi, bir-biriga ta'sir qiladi, o'zgaradi – rivojlanadi.

Taraqqiyot tezlashishi natijasida dunyoning yagona axborot makoniga aylanib borishi tillar taqdirida ham katta rol o'ynaydi. Masalan, o'tgan ming yillikda dunyo tillarining 500tasi o'lik tilga aylangan bo'lsa, so'nggi yuz yillikda esa 1000ta til tarix qa'rige singib ketdi.

«Development of science» international conference

Tillararo notenglik – kichik tillar yashovchanligiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omil. Qaysidir til muhimroq, obro'liroq, qulayroq bo'lib, unga muayyan bir jamiyat yoki dunyo miqyosida ko'proq e'tibor qaratiladi. Tabiiyki, odamlar o'zi va farzandlari uchun ijtimoiy mavqe beradigan tilni tanlashadi. Masalan, bizning sharoitda rus tiliga, ingliz tiliga berilayotgan e'tibor buning bir ko'rinishi. Odatda, maktab va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan bu «katta» tillar – mansab pillapoyalaridan yuksalishning muvaffaqiyatli garovi.

Natijada «kichik» tillar ahamiyatsiz, ikkinchi darajali yoki umuman keraksiz bo'lib qolaveradi. Ko'ptillilik qadrlanmaydi, ona tili sevilmaydi, balki «bosh» tilni bilish har tomonlama rag'batlantiriladi. Bu tilni biluvchi mutaxassislarga ustama maoshlar beriladi, imtiyozlar taqdim etiladi. Biroq, masalan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa millat mutaxassislarining o'zbek tilini bilishi, bu tilda ish ko'rishi rag'batlantirilmaydi. Holbuki, endi mamlakatimizning dunyo bo'yicha o'zbek tili ta'lmini yo'lga qo'yishga kirishish vaqt keldi.

Sivilizasiya tillarning taqdirida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida qayd etganimdek, taraqqiy etgan qit'alarda tillar soni kam, kam rivojlangan qit'alarda esa tillar soni ancha ko'p. Masalan, Yeropa qit'asida 240ta til mavjud. Buni Osiyo va Afrika qit'alari tillari soni bilan qiyoslash yetarli.

Tillarning taraqqiyoti va tanazzulida quyidagi holatlar alohida ajralib turadi:

- 1) tillarning o'lik tilga aylanishi (etrusk tili, shumer tili, sanskrit tili, qadimgi xorazmiy tili, so'g'd tili);

- 2) tillarning boshqa tilga aylanishi (grek tili, yahudiy tili, arman tillari);

- 3) tillarning bo'linib ketishi (german tillari);

- 4) tillarning qo'shilishi natijasida yangi tillar vujudga kelishi (o'zbek, turkman tillari);

- 5) tillarning «tirilishi» (ivrit tili).

«O'Igan» ivrit tili esa dunyo yahudiylarining say-harakatlari bilan qayta jonlantirildi – muloqot vositasi tusini oldi. Bunda jonkuyar mutaxassislar va fidoyi til sohiblari katta rol o'ynadilar.

Har bir davrda tillar taraqqiyoti yoki o'limiga turli omillar sabab bo'Igan. XX asrgacha kolonializm, XX asrda urbanizasiya (shaharlashuv), XXI asrda globallashuv tillar o'limiga sabab bo'lmoxda. Yevropadagi Islandiya davlatining tili bo'Igan island tili o'lik tilga aylanayotgani barcha millatparvar kishilarni hushyor torttirishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, Islandiyada internet tili ingliz tili bo'Igani uchun island tilining qo'llanish doirasi tobora torayib bormoqda.

Barcha tillar yashab qolish darajasi nuqtayi nazaridan quyidagicha tasnif qilinmoqda:

1. xavfsiz tillar;

2. ehtiyyottalab tillar;

3. xavf yaqinlashayotgan tillar;

4. xavfga chalingan tillar;

5. o'layotgan tillar.

Eng xavfsiz tillar qatorini turgan ingliz, xitoy, ispan, nemis, yapon, fransuz, arab tillari egallagan. Ularning xavfsizligi gaplashuvchilar soni, mamlakatlarining qudrati, millatining tilsevarligi va ommaviylashganlik darajasi kabilar bilan belgilanadi. Bu borada yetakchilikni hali ko'p vaqt davomida ingliz tili saqlab tursa kerak. Ingliz tilida so'zlashuvchilar soni xitoy tiliga nisbatan kam bo'lsa-da (450 mln kishi), uning talabgorlari kun sayin oshmoqda. AQSH va Angliya iqtisodda yetakchilik qilar ekan, bu tilning mavqeyi saqlanib qolaveradi. Bunday hol ikkinchi jahon urushi oldidan nemis tili misolida ko'ringan edi va dunyo miqyosida bu tilning rasmiy ta'limi urushdan keyin ham uzoq vaqt saqlanib qoldi. Bu jarayon susaya boshlashi bilan Germaniya bu tilning dunyo bo'yicha o'qitilishini, o'rganilishini rag'batlantirishga kirishdi. Zero, keng tarqalgan tillarning o'limi o'z mamlakatidan tashqarida uning ta'limi susayishidan boshlanadi.

«Development of science» international conference

Xitoy tilida so'zlashuvchilar soni bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi, ammo ularning bari xitoyliklardir. Ta'kidlash kerakki, xitoyliklar ham o'z tillarini dunyoga ta'lif yo'li bilan yoyish bo'yicha jiddu-jahd ko'rsatmoqda.

— Hozirgi kunda har tomonlama rivojlanish uchun tillarga tayanish, ularni o'rganish zaruratga aylanmoqda. Hatto Xitoy va Hindistondek davlatlar ham ingliz tilidan keng foydalanmoqda.

— Buning natijasida, ona tilimizga ongsiz ravishda e'tiborsizlik qilgan bo'lamiz. «Faqat ularga tayanish» shart bo'lsa, ona tilimizga nisbatan qasddan jinoyat sodir bo'ladi. Xalqaro tillardan foydalanish, ularga tayanish, taraqqiyot garovi. Agar bunda o'rta yo'lni («ularga ham tayanish») tanlamasak, texnik-texnologik, iqtisodiy jihatdan «taraqqiyot»ga yuz tutsakda, ma'naviy jihatdan orqaga ketamiz. Taraqqiyotda ona tili bilan birga «xalqaro tillarga ham tayanish» yaxshi natija beradi. Ko'plab mamlakatlarda ona tillari taraqqiyot yo'lida globallashuv qurbaniga aylanmoqda. Shu ma'noda prezidentimizning o'zbek (ona) tilini bilmagan bolalarni zamonaviy maktablarga qabul qilmaslik haqidagi fikrlari katta metodologik ahamiyatga ega. Bu fikrga huquqiy maqom berish kerak.

— Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikasiyalari sohasida, Internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Qaysi til internet tili emas ekan, bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi.

Internet tili haqida so'z ketar ekan, o'zbek tili internet tili emasmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki o'zbek tilida internet sahifalarida ma'lumotlar berilmoida, yozishmalar amalga oshirilmoida, tilimizda ish olib boradigan sayt va portallar, ijtimoiy tarmoqlar kundan-kunga ko'payayotir. Zohiran tilimiz internet va axborot-kommunikasiya sohalarida cheklanmagan darajada qo'llanayotgandek, tilimiz esa internet tiliga aylangandek.

Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter lingvistikasida «kompyutering tilni tanishi» degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni «tanir» ekan, tilning kompyuter tili, internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi.

Kompyuter tilni «tanishi» uchun u bu tilni «bilishi» zarur. Kompyutering matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, annotasiyalashi, tilni o'rgatishi, transliterasiya qilishi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning muayyan til asosida ish ko'rishi, tilning sun'iy intellektning to'la ma'nodagi muloqot vositasiga aylanishi uning tilni «bilishi» va «tanishi» asosida sodir bo'ladi.

XX asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalarini sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanib qoldi.

Tilning internet, kompyuter texnologiyalarini tiliga aylanishi matematik lingvistika, uning davomi bo'lgan kompyuter lingvistikasining shakllangani va rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni modellashtirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellashtirish yotadi. Matematik modellashtirish natijalari sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq.

Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvlariga, ko'p sonli so'zlashuvchilarga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot-kommunikasiya, internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

«Development of science» international conference

Shubhasiz, ona tilimizning ham o'z yozuviga, davlat tili maqomiga egaligi, 40 millionga yaqin so'zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq , ta'kidlash kerakki, uning axborot-kommunikasiya texnologiyalari, internet tili darajasiga ko'tarilmayotgani, ayniqsa, bu borada tegishli ilmiytadqiqot muassasalarini va markazlarda konseptual xarakterdag'i na nazariy, na amaliy, na tashkiliy ishlar olib borilayotgani uning ham yo'qolish xavfidan butkul xoli emasligini, ro'yxatda esa ehtiyottalab tillar qatorida qolib ketayotganini ko'rsatadi. Ijrosi kechikib borayotgan bo'lsa-da, bu vazifalarni uddalay olsak, ona tilimiz, albatta, hech qachon o'lmaydi.

Til bilan yozuv chambarchas bog'liq, lekin mustaqil hodisalardir. Inson paydo bo'lgandan beri til mavjud, ammo èzuv kishilik jamiyatni taraqqietining so'nggi bosqichlarida yuzaga kelgan. Ijtimoiy hodisa sifatida til tabiiy yo'sinda paydo bo'lib, o'z taraqqiet qonunlari bilan rivojlanadi. Til kishilarga o'zoq davrlar yolg'iz o'zi hizmat qilgan, yozuv esa kishilarning ongli aralashuvi bilan ma'lum zaruriyat tufayli keyinchalik o'ylab topilgan .

Yozuvning o'zgarishini tilning o'zgarishi, deb qaramaslik kerak. Til o'zicha, èzuv ham o'zicha o'zgaradi. Tilni daraxtga o'xshatsaq, yozuv uning soyasi deyish mumkin. Daraxtning o'sishi yer, suv, havo, quèsh kabi omillarga bog'liq, soyaning bo'llishi esa quyoshga va soya berishi mumkin bo'lgan narsaning borlig'iga bog'liq. Daraxt soya berishi uchun quyosh nuri daraxtga tushib turishi shart.Til bilan yozuvning munosabatini shunga o'xshatish mumkin. Yozuvning tilga biriktirilishi ma'lum darajada shartli. Ayni bir tilga turli davrlarda boshqa-boshqa yozuvning hizmat qilgani buning eng ishonchli dalilidir. Masalan, qadimgi turkiy til o'z yozuviga ega bo'lgan. Bu tilga mansub èdgorliklar bizgacha bir necha hil alifboda yetib kelgan. Shu qadimgi turkiy tilning vorislardan hisoblanuvchi o'zbek tiliga keyinchalik uch alifbo hizmat qilgan. Bular bir necha marta isloh qilingan arab alifbosi, lotin alifbosi va rus (kirill) alifbolaridir. Arab alifbosi asrimizning 20-yillari oxirigacha amal qilindi. Keyin qisqa muddat lotin alifbosidan foydalandik, 1940-yildan boshlab rus (kirill) alifbosiga o'tkazildi. 1993 yil 2 sentabrdan lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tildi. Juda qisqa muddat — 20-25 yil oralig'ida alifbo ikki marta almashtirildi, lekin buning natijasida o'zbek tilida sezilarli o'zgarish yuz bergani yo'q.

"Rus alifbosini qabul qilish bilan o'zbek tili ruslashib ketdi" degan fikrda asos yo'q. Agar shunday bo'lsa, unda o'zbek tili arab istilosidan boshlab to lotin alifbosini olgunimizga yetkazish, kelgusi avlodga qoldirish zaruriyati yozuvning paydo bo'llishiga olib keldi. Kishilik jamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida ham radio, televizor kashf etilganiga qaramay, yozuv o'z mavqeini yo'qotmadi.

Arab yozuvidan voz kechish natijasida ming yillik merosimizdan ayrildik" mazmunidagi gaplar ham aytildi. Bebaho merosimiz o'z joyida to'ribdi, alifbo o'zgarishi bilan hech kim ularni yo'q qilib yuborgani yo'q. Buyuk bobokalonlarimiz turkiy tilda ijod qilganlar-u, lekin o'z ijodlari mahsulini arab alifbosi bilan hatga tushirganlar. Biz bu bebaho merosimizni turkiyguy bobokalonlarimiz turkiy tilda yaratganlari uchun qadrlaymiz, arab alifbosida yozganlari uchun emas, albatta. Ma'lumki, allomalarimiz o'z ijod mahsulini arab, fors tilida yozilgani bilan emas, balki o'z mazmuni bilan, o'sha davr ilmining yuksaq cho'qqilarini aks ettirganib qadrli

Birinchidan, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, ayniqsa kelajagini uylab ish tutish lotin alifbosini tanlash to'g'ri bo'llishini ko'rsatdi: O'zbekiston Respublikasi duyo miqyosiga chiqmoqda. G'arb sivilizasiyasi tomon harkat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda buni albatta hisobga olishimiz shart. G'arb dunyosiga taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin alifbosi asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi — dunyoda keng tarqalgan alifbo.

«Development of science» international conference

Ikkinchidan, ijtimoiy-iktisodiy jihatdan dunè miqyosiga chiqish, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik munosabatlar o'rnatish, dunèda eng keng tarqalgan tillarni — ingliz, ispan, fransuz tillarini — bilishimizni taqozo etmoqda. Lotin alifbosiga o'tishimiz o'zbeklarning g'arb tillarini o'rganishini yengillashtiradi. Bugungi kunda o'zbek tadbirkorlari, o'zbek va rus tillaridan tashqari, albatta g'arb tilini (birinchi galda ingliz tilini) bilishi shart bo'lib qoldi, aks holda samarali faoliyat ko'rsata olmaydi.

Uchinchidan, lotin alifbosiga o'tish masalasini birgina o'zbeklar ko'tarib chiqqani yo'q, balki ko'pchilik turkiyzabon millatlarga qarab ish tutish lozimligi ham lotin alifbosini tanlashimizni o'z-o'zidan hal etib berdi. 2019 yil oktabr oyida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ona tilimiz taqdiri bilan bog'lik ikki buyuk tarixiy hujjatni imzoladi: 4 oktabr kuni "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror va 21 oktabr kuni "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon e'lon qilindi. Bu ikki hujjat o'zbek tili hayoti va rivojida yangi bir davrni boshlab berdi.

Hisob kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi aytildi. 2005 yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6 912 ta tilni qamrab oladi. Til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. YUNESKO hisob kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining oxirgi sohibidan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotganligi esa dahshatli hodisa! YUNESKOning 2017 yil 15 iyundagi xabariga ko'ra, o'lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to'g'ri keladi. Tilga Davlat tili maqomining berilishi uni yo'qolish muammosiga duch kelish xavfidan ma'lum darajada xalos qiladi. Masalan, udmurt, chukot, chechen tillari ham, davlat tili bo'lsada, yo'qolish xavfiga yuz tutayotganligi – fikrimizning dalili. Albatta, Davlat tili maqomi til va uning sohiblari uchun juda ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga ega. U – milliy yaxlitlikni va bardavomlikni ta'minlovchi asosiy vosita. Biroq uning o'ziga tilning yashab qolishi uchun yetarli emas.

Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikasiyalar sohasida, Internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Qaysi til Internet tili emas ekan, bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi. Internet tili haqida so'z ketar ekan, o'zbek tili Internet tili emasmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki o'zbek tilida Internet sahifalarida ma'lumotlar berilmoqda, yozishmalar amalga oshirilmoqda, tilimizda ish olib boradigan sayt va portallar, ijtimoiy tarmoqlar kundan-kunga ko'payayotir. Zohiran tilimiz Internet va axborot kommunikasiya sohalarida cheklanmagan darajada qo'llanayotgandek, tilimiz esa Internet tiliga aylangandek. Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter lingvistikasida "kompyuterning tilni tanishi" degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni "tanir" ekan, tilning kompyuter tili, Internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi. Kompyuter tilni "tanishi" uchun u bu tilni "bilishi" zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, annotasiyalashi, tilni o'rgatishi, transliterasiya qilishi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning muayyan til asosida

«Development of science» international conference

ish ko'rishi, tilning sun'iy intellektning to'la ma'nodagi muloqot vositasiga aylanishi uning tilni "bilishi" va "tanishi" asosida sodir bo'ladi.

XX asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalari sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanib qoldi.

Til barcha sohalarning tub negizi hisoblanadi. Sababi, biz tafakkurimizdagi mahsulni, har bir fikr va yangilikni til orqali yuzaga chiqaramiz. Taassufki, o'zbek tili keyingi paytda ishlatilishi jihatidan biroz quyi qatlamlarda foydalaniladigan tilga aylanib qolganini aytishimiz o'rinli bo'ladi. Masalan, oddiy odamlar orasida muloqot tili, o'zbekcha o'qitiladigan ta'lim muassasalarida ta'lim tili, adabiyot va san'atda ishlatiladigan til.

Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvlariga, ko'p sonli so'zlashuvchilarga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot kommunikasiya, Internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur. Shubhasiz, ona tilimizning ham o'z yozuviga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 mln. dan ortiq so'zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq achchiq bo'lsada, ta'kidlash kerakki, uning axborot kommunikasiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko'tarilmayotgani va, ayniqsa, bu borada tegishli ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlarda konseptual xarakterdagi na nazariy, na amaliy, na tashkiliy ishlar olib borilayotganligi uning ham yo'qolish xavfidan butkul xoli emasligini, ro'yxatda esa ehtiyyottalab tillar qatorida qolib ketayotganligini ko'rsatadi.

Bugun mamlakatimizda boshlangan ko'lamli va shiddatli islohotlar fan va ta'lim sohalari, xususan, til va adabiyot ta'limining samaradorligi uchun ham xizmat qilmoqda. Til insoniyat tarixida, xalq tamaddunida qanchalik bemisl ahamiyatga molik bo'lsa, uni o'rganish, uning sinoatlari bilan oshno bo'lish shunchalik favqulodda zaruriy yumushdir.

Dunyo adabiyotining atoqli namoyandasini Chingiz Aytmatov "Avezov haqida so'z" (1977) deb nomlangan maqolasida "Til xalqning avtoportretidir" degan teran fikrni aytgan edi. Chindan, o'zbek tili o'zbek xalqining siyratu suvratini, tafakkur va ichki olamini, o'tmishu bugunini boricha aks ettiradigan va muhimi, shu tilning o'zi vositasida hamda "o'z qo'li" bilan darj qilingan xolis qiyofasidir.

Bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til mavjud bo'lsa, ularning har biri muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning asosidir. Ularning har biri mutlaqo o'ziga xos siru asrорlar mujassam bo'lgan bebaho boylik. Shuning uchun ham bu boylik sinoatlarini o'rganish, bu sinoatlarni bolalaikdan, yoshlikdan egallash jamiyatda qadim davrlardan aql egalarini o'ylatgan. Yer yuzidagi eng ko'hna muassasalardan bo'lmish qadim Sharq bag'rida tavallud va kamol topgan. Eramizdan oldingi uchinchi mingyillikning boshlarida, demakki, bundan besh ming yillar burun qadimgi Shumerda maktablar faoliyat ko'rsatgan va bu maktablarning ta'lim dasturlarida ikki asosiy tayanch mavjud edi. Ularning biri matematika, ikkinchisi esa ona tili hisoblangan. Ularning biri qorin qayg'usi ehtiyoji uchun, ikkinchisi – til ta'limi esa ruh, ya'ni qadr qayg'usi talabini qondirishga xizmat qilgan. Albatta, bugun ham shunday, maktabdir, oliy maktabdir, ona tili ta'limining bosh mo'ljali inson ruhiy, ma'naviy olami. Maqsad, avvalo, millat qiyofasi va ma'naviyatini salomat saqlashdan iborat.

«Development of science» international conference

Maktab amaliyotida ona tili ta'limi ham, xorijiy til ta'limi ham favqulodda muhim ahamiyatga molik. Faqat ona tili ta'limida maqsad tildan tafakkurga qarab borish bo'lsa, noqarindosh til ta'limida ta'lim mantig'i tafakkurdan tilga olib boradi. qat'i nazar shu xalq ma'naviyatinining ustuni, asosidir. Mamlakatimizda turli millat vakillari bir davlat fuqarolari o'laroq istiqomat qiladilar. Yurtimizda shakllangan odil til siyosati bois bugun yetti tilda ta'lim olib borilmogda.

Har qanday tilni tadqiq qilishda, uni o'rganishda bu muhtasham hodisa faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalq ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi hodisa sifatida qaralishi zaruriy hodisadir.

Millatni millat sifatida tutib turadigan ustunlar bor. Bular milliy tafakkur, milliy ma'naviyat, milliy did, milliy madaniyat kabi tarixiy aqlimiz va salohiyatimizning majmualaridir. Lekin, bularning barchasining zaminida bitta til yotadiki, usiz hech bir ustun o'zini tik tutib turolmaydi. Bu milliy tildir. Globallashuv sabab dunyoda o'nlab tillar tanozzulga uchrayapti. Mutaxassislar fikriga ko'ra, XXI asrda 600 ta til yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bu dunyo miqyosidagi katta xatar. Tillarning yo'qolishi- millatlar, vatanlar, tarixlar yo'qolishi demakdir. Bunday vaziyatda har bir xalq o'z taraddudini o'zi ko'rishi kerak. Bugungi kunda har bir fidoiy inson 2019 yilning 21 oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va maveini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni ijrosiga to'la amal qilgan holda, uni rivoji, himoyasi, taraqqiyoti uchun ma'sul bo'lmos'himiz darkor.

Ammo o'ylantiradigan bir masala borki, yoshlarimizning chet tillarini o'rganishiga targ'ib etishimiz, o'z ona tilimizning muomaladan chiqib ketishiga olib kelmasligi kerak. Targ'ib avvalo o'z ona tiliga nisbatan bo'lmos'himiz lozim. Chet tilida so'zlashuvning ko'payishi bu mantiqqa ham o'z ta'sirini o'takmasdan qolmaydi. Nega va qanday?

Sabab shundagi har bir til millatning ruhini aks ettirar ekan, milliy o'ziga xoslikka tayanar ekan o'zga millat tili ham bizning ruhimizga ta'sir etadi. Ruhiyat fikrlashda namayon bo'ladi deb olsak, fikrlashimiz va dunyoqarashimiz o'zga millat kabi bo'la boshlaydi. Birgina ingliz tili va ona tili grammatikasini olaylik. Millatning o'ziga xosligi shunda ham ayon. Ya'ni Ingliz tilida grammatic jihatdan avval ega +,keyin +kesim va keyin +ikkinchi darajali to'ldiruvchi bo'laklar aks etadi. I live in the Tashkent- Men yashayman Toshkentda .O'zbek tilida esa ega + ikkinchi darajali bo'lak+ kesim. Men Toshkentda yashayman. Inglizlar kesimni qo'yadi avval ya'ni fikrlashga kelsak muammoni aytadi qo'yadi. Bizda esa tushuntirib vaziyatga tayyorlab keyin aytadi. Ya'ni millat ruhiyati grammaticada ham aks etgan . Mantiqqa tayansak Sof o'zbek tilida mantiqan fikrlash uchun o'zbek tilini mukammal bilish lozimdir.